

Moliyaviy hilalar

Quyida real tajribaga asoslangan turli 7 vaziyatlar tasvirlangan. Har bir inson kundalik hayotda ushbu vaziyatlarga duch kelishi mumkin.

Sizning vazifangiz – quyidagi vaziyatlardan qaysi biri moliyaviy firibgarlik hisoblanadi, qaysilari esa xavfsiz ekanini aniqlashdan iborat.

1-holat.

Azizaning bank kartasiga notanish manzildan pul mablag‘i kelib tushdi. Shundan so‘ng notanish odam Azizaga qo‘ng‘iroq qilib boshqa kartaga pul o‘tkazmoqchi bo‘shlganini, ammo adashib Azizaning bank kartasiga o‘tkazib yuborganini aytib, karta raqamini berishini aytdi va aytilgan bank kartasiga pullarni qayta o‘tkazib berishini Azizadan iltimos qildi.

Ushbu holatda Azizaga qanday yo‘l tutishni maslahat berasiz?

2- holat.

Alisherning elektron pochta manziliga quyidagicha xabar keldi:

“Assalomu aleykum, hurmatli Alisher Abdullaev!

Sizga yaqin kunlarda bizning saytimizda “Quvnoqlar va Zukkolar” tanlovi o‘tkazilishini ma‘lum qilamiz. Tanlovda ishtirok etib o‘z imkoniyatingizni sinab ko‘ring va pul mukofotini qo‘lga kiriting. Tanlovda ishtirok etish uchun quyidagi so‘rovnomanini to‘ldiring va bizning onlinekonkurs@mail.ru elektron pochta manzilimizga yuboring. Ro‘yxatdan o‘tganingizni tasliqlash maqsadida sizga SMS-xabarnoma yuboriladi.

Ro‘yxatdan o‘tish uchun so‘rovnoma:

F.I.Sh. _____

Tug‘ilgan yili _____

Bank kartasi raqami _____

CVC/CVV kod _____

Tanlovda sizga omad tilaymiz!”

Ushbu holatda Alisherga nima maslahat berasiz? Ro‘yxatdan o‘tish qanchalik xavfsiz? Nima sababdan?

3- holat.

Shahnozaga bank xodimi qo‘ng‘iroq qilib noqonuniy savdo amaliyotlarida shubha ostiga olingani sababli bank hisob raqami va kartasi bloklanishini ma‘lum qildi. Agar Shaxnoza buni rad etadigan bo‘lsa, qayta tekshirish o‘tkazilishi uchun bank hisob ramamining barcha rekvizitlarini aytishi va bank kartasi orqali so‘nggi bir hafta ichida amalga oshirilgan barcha operatsiyalar ro‘yxatini taqdim etishi zarurligini ta‘kidladi.

Ushbu vaziyatda Shahnoza qanday yo‘l tutishi to‘g‘ri? Nima sababdan?

4- holat.

Anvarga kech soat 11 da Ilyos ismli hamkasbi qo'ng'iroq qildi va unga zudlik bilan pul zarur bo'lib qolganini aytib Anvardan 2 kunga qarz berib turishini iltimos qildi. Anvar 2 kundan so'ng oylik ishxonada oylik maosh berilishini biladi. Anvar hamkasbiga yordam berishga qaror qildi va bank kartasi raqamini so'radi. Ilyos bank kartasi telefon raqamiga bog'langanini va telefon raqami orqali pul yuborish mumkinligini aytdi. Anvar zarur mablag'ni yubordi va Ilyosga pullarni qabul qilib olishi uchun kodni aytish maqsadida qo'ng'iroq qildi. Ammo, kodni aytishi bilan aloqa uzilib qoldi. Qaytib qo'ng'iroq qilganida esa, Ilyosning telefoni o'chirilgan edi.

Anvar ushbu holatda moliyaviy firibgarlarga duch kelgan bo'lishi ehtimoli bormi?

5- holat.

Nargiza tibbiyot universitetida tahsil oladi. Hozirda u 5-bosqich talabasi ekanligi sababli, o'tgan yillardagi kitoblarini internet do'konida sotuvga qo'yishga qaror qildi. Nargiza saytga e'lon joylashtirdi. Ma'lum muddatdan so'ng potensial xaridor Nargizaga murojaat qildi. Nargiza barcha kitoblarni xaridorga yuborish uchun tayyorlab qo'ydi, ammo xaridordan kitoblar uchun pulni oldindan olishga qaror qildi. U potensial xaridorga o'zining bank kartasi raqamini yubordi va to'lovni amalga oshirishini so'radi. Xaridor esa, allaqachon to'laganini, hozirda internet do'koni tomonidan qo'llanilayotgan yangi o'zgarishlarga ko'ra Nargiza havola orqali o'tib (xaridor tomonidan yuborilgan) bank kartasi ma'lumotlarini kiritish orqali pullarni o'z kartasiga qabul qilishi mumkinligini aytdi.

Nargizaga ushbu vaziyatda qanday qaror qabul qilishini maslahat bergan bo'lar edingiz? Internet tarmog'ida o'z bank kartasi/hisob raqamiga doir ma'lumotlarni joylashtirish qanchalik xavfsiz? Nima sababdan?

6- holat.

Lola dugonalari bilan yig'ilib maktabni bitirganlarining 20 yilligini nishonlashga qaror qilishdi. Uchrashuvda Lolaning dugonalaridan biri o'zi ishga joylashgan yangi kompaniya ishlab chiqaradigan kimyoviy vositalarni xarid qilishni taklif qildi. Ularni xarid qilishdan tashqari, dugonalarini ushbu kompaniyaga masofaviy ishga joylashishga ham undadi. Vazifalar juda oddiy – katta bo'lmagan summada boshlang'ich to'lovni amalga oshirish va iloji boricha ko'proq mahsulot sotish. Oylik maosh sotilgan mahsulotlardan hisoblanadigan foizlar ko'rinishida to'lanadi. Lola hozirgi vaqtda ish qidirayotganligi tufayli dugonasining taklifini o'ylab ko'rishga qaror qildi.

Siz Lolaga bu vaziyatda qanday qaror qilishni tavsiya berasiz va nima sababdan? Dugonasining taklifi qay darajada ishonchli?

7- holat.

Sardor mahalliy korxonalarining birida injener bo'lib faoliyat yuritadi. Yaqinda uning do'sti Kamol juda mafaatli bir kompaniyaga investisiya kiritishga juda faol ravishda unday boshladi. Uning aytishi bo'yicha, agar hozir 5 mln so'm kiritrsa, bir yildan so'ng 12 mln so'm olish mumkin ekanligini aytdi. Sardor bunga qiziqib qoldi va kompaniya vakillari bilan shaxsan ko'rishib gaplashib olishni istadi. Ammo, barcha kelishuvlar faqat internet orqali olib borilar ekan. Juda muhim shartlardan biri – kompaniya to'g'risidagi

ma'lumotlarni ovoza qilmaslik edi. Sardor, o'zining oylik maoshi yaxshi bo'lishiga qaramasdan, do'stining taklifini o'ylab ko'rishga qaror qildi.

***Ushbu holatda Sardorga qanday qaror qabul qilishni tavsiya etasiz va nima sababdan?
Bu vaziyatda firibgarlik belgilari mavjudmi, nima deb o'ylaysiz?***